Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1203
Ahrorov Farhod Baxriddinovich	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashtirishdan foydalanish.....	1208
Muhitdinov Asror Akobirovich	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari.....	1213
Djumayev Zayniddin Axmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari.....	1219
Tursunov Nozimjon Nosirovich	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
Saida Yuldasheva	
The Contribution of Ecotourism in Developing Gdp in Uzbekistan.....	1227
Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husanboy Bahromjon o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li	
Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o'rni.....	1231
Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna	
O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va undagi asosiy o'zgarishlar tahlili.....	1237
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'llari.....	1245
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан.....	1250
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	
O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budget daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1254
Ikramov Ravshan Amanbayevich	
Uzum-vinochilik mahsulotlari bozorida eksportni diversifikatsiyalash strategiyalaridan foydalanish.....	1261
Azadova Bonuposhsha Alisher qizi	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari.....	1266
Sadikov Iskandar Gayratovich	
Milliy soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirishda ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarini tokomillashtirish masalalari.....	1272
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari.....	1277
Qorriyeva Shahnaza Safarboyevna	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari.....	1281
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	



Xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning ahamiyati va zaruriyati	1284
Mirzayev Qulmamat Janzakovich, Djurakulov Shoxrux Baxtiyorovich	
Yog'-moy korxonalarining xom ashyo ta'minotini amalga oshirishning zamonaviy konsepsiyalari	1289
Jo'rayeva Nodiraxon Qurbonovna	
O'zbekistonda mulkdorlar sinfini shakllantirishning ilmiy-metodologik yo'nalishlari va rivojlanish bosqichlari.....	1294
Berkinov Bazarbay Berkinovich	
O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlanishi istiqbollari ta'minlash omillari.....	1300
X. I. Boyev	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarishda jahon tajribasi.....	1305
Saipova Dilnoza Shuxratovna	
Mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirish indikatorlarining iyerarxiyasi.....	1310
Muhammadiyev Sardorbek Shokir o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy qarorlarni qabul qilishning muhimligi.....	1315
Allayarov Shamsiddin Amanullaevich, Yoqubov Madaminbek Abdurahim o'g'li	
Mehmonxonalarda boshqaruv tizimi va uni takomillashtirish.....	1320
Qalandarova Gulnoza, Botirova Zumrad	
O'zbekistonda maktab va maktabgacha talim tizimini moliyashtirishni takomillashtirish.....	1324
Boltaboyev Murodbek Aybekovich	
Mehnat resurslarini samarali boshqarishda jahon tajribasi.....	1329
Xonnazarova Dilobar Qutbiddin qizi, Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash.....	1333
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
O'zbekiston Respublikasida "Iqtisodiy erkinlik indeksi"ning davlat aralashuvi darajasi yo'nalishida yuqori natija qayd eta olish imkoniyatlari va buning oqibatlari	1337
Qoraboyev Bobur Umarovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich, Ravshanov Shaxriyor Shuhratovich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li	
Improving the Participation of Joint-Stock Companies in the Capital Market.....	1343
Muminov Shohjahon Suyun ugli	
Mamlakatimizda atrof-muhitni himoyalashga ixtisoslashgan ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish shakllari.....	1347
Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
Mahalliy farmatsevtika mahsulotlari bozori va iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish xususiyatlari.....	1353
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
Soliq va buxgalteriya hisobini yuritishda asosiy vositalar hisobining dolzarb masalalari	1359
Arifxanova Xabiba Shuxratovna	
Institutsional islohotlar sharoitida mamlakatni moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	1365
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Ermo'minov Iskandar Ziyodillayevich	
Mehmonxonalarda xizmat sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari.....	1370
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Resurslar yetishmaydigan hududning investitsion jozibadorligini shakllantirishning uslubiy asoslari.....	1375
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Jahon moliyaviy arxitekturasini va xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo'nalishlari.....	1381
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Karimov G'ayratjon Toxir o'g'li	
"O'zneftgaz" AK tizimidagi korxonalarda joriy aktivlarning sof foyda hajmi va uning o'zgarishiga ta'sirini perespektiv tahlili	1386
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Oliy ta'lim tizimi boshqaruvi samaradorligini baholashda sifat menejmenti va uning konseptual asoslari.....	1392
Teshayev Hotamjon Ixtiyor o'g'li, Boltayeva Mohichehra Sharipovna	
"Xufiyona iqtisodiyot"ning jamiyatga ta'siri	1397
Mirzayev Zarshed Mirzayevich, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi	
Kichik va o'rta biznes subyektlarini tadbirkorlik qobiliyatini baholashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari....	1400
Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining me'yoriy-huquqiy asoslari	1404
Beknazarova Nilufar Tulkinovna	



OLIIY TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA SIFAT MENEJMENTI VA UNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Teshayev Hotamjon Ixtiyor o'g'li

Buxoro davlat universiteti 3-1 IQT-23 guruhi talabasi

Boltayeva Mohichehra Sharipovna

Marketing va menejment kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida sifat menejmenti, undan foydalanish samaradorligi, oliy ta'lim tizimi boshqaruvi samaradorligini baholashda sifat menejmenti va uning nazariy asoslari, oliy va xususiy ta'limda sifat menejmentini tashkil etish natijasida vujudga kelgan muammolarni hal etish yo'llariga doir tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: sifat menejmenti, avtonomlik, ta'lim sifati, boshqaruv mustaqilligi, SWOT tahlil, investitsiya, baholash mezonlari.

Abstract: In this article quality management in the system of higher education, the effectiveness of its use, quality management in assessing the effectiveness of higher education system management and its theoretical foundations, recommendations on ways to solve the resulting problems.

Key words: quality management, autonomy, education quality, management independence, SWOT-analysis, investment, evaluation criteria.

Аннотация: В данной статье менеджмент качества в системе высшего образования, эффективность его использования, менеджмент качества в оценке эффективности управления системой высшего образования и его теоретические основы, рекомендации по путям решения возникших в результате проблем.

Ключевые слова: управление качеством, автономия, качество образования, независимость управления, SWOT-анализ, инвестиции, критерии оценки.

KIRISH

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida "...sifatli oliy ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, OTMlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish"¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi hududlarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda strategik boshqaruv mexanizmini takomillashtirishni talab etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim tizimida sifat menejmentidan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlarini xorijiy olimlardan W.Stock, J.Siegfried, A.Finegan, L.Maureen, G.Pettersson, P.Drucker, M.Meskon, M.Albert, F.Xedouri, T.Saati va boshqalarning boshqaruvga doir ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan. MDH mamlakatlaridan V.I.Martsinkevich, I.V.Soboleva, S.A.Dyatlov, N.P.Litvinova, V.V.Sheremetova, L.I.Yakobson, T.I.Shamov, P.I.Tretyakov, V.V.Gluxov, A.V.Tebenkin, A.N.Asaul, A.N.Boyeva, B.M.Kaparov, M.V.Nikitin kabi olimlarning ilmiy ishlari oliy ta'lim tizimini sifat menejmentini uslubiy jihatlarini takomillashtirish masalalarini ilmiy tadqiq etishga bag'ishlangan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. //Lex.uz.



TADQIQOTNING USULLARI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, mantiqiy va qiyosiy tahlil, analiz va sintez, qiyosiy taqqoslash, kabi usullar qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston–2030 strategiyasida oliy ta'lim tizimi boshqaruvi samaradorligiga oid quyidagi asosiy fikrlar va chora-tadbirlar bildirilgan:

Ta'lim sifatini oshirish, ta'lim dasturlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, pedagogik kadrlarning malakasini oshirish, ularni xorijiy tajriba bilan tanishtirish va xalqaro sertifikatlarga ega bo'lishini ta'minlash, innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish, oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion usullarni keng qo'llash, onlayn ta'lim platformalarini rivojlantirish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish shular jumlasidandir.

Ta'lim muassasalarining avtonomligini oshirish jarayonida esa oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy va boshqaruv mustaqilligini berish, universitetlarning o'zini-o'zi boshqarish tizimini rivojlantirish va ularning strategik rejalashtirishda mustaqilliklarini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish, universitetlarning ilmiy va innovatsion salohiyatini oshirish, startaplar va tadbirkorlik loyihalarini qo'llab-quvvatlash alohida ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim tizimida hamkorlik va integratsiya jarayonlarini tashkil etish uchun, xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, chet ellik professor-o'qituvchilarni jalb qilish va talabalarni xalqaro almashinuv dasturlari orqali xorijiy tajriba orttirishlarini ta'minlash kerak bo'ladi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liqlik tizimiga ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish, universitetlar va sanoat korxonalari o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlash, talabalarni amaliyotga jalb qilish hamda moliya va mablag'lar tizimidan oqilona foydalanish yo'llari kiradi. Oliy ta'lim tizimiga investitsiyalarni jalb qilishda davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish orqali ta'lim muassasalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. O'zbekiston–2030 strategiyasi doirasida amalga oshiriladigan bu chora-tadbirlar oliy ta'lim tizimining boshqaruvi samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan.

Oliy ta'lim tizimi boshqaruvi samaradorligini baholashda sifat menejmenti (quality management) muhim ahamiyatga ega. Sifat menejmenti ta'lim jarayonining barcha jihatlarini, jumladan, o'qitish usullari, o'quv dasturlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati, talabalarining o'zlashtirishi va ta'lim muassasasining umumiy ishlash samaradorligini qamrab oladi. Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida sifat menejmentining rejalashtirish (Planning), ijro etish (Implementation), nazorat va monitoring (Control and Monitoring), tahlil va takomillashtirish (Analysis and Improvement) kabi asosiy funksiyalari tahlil qilinadi. Ta'lim muassasasining strategik maqsad va vazifalarini aniqlash, ta'lim jarayonlarini rejalashtirish va kerakli resurslarni ajratish, ta'lim dasturlarini joriy etish va o'qitish jarayonini tashkil etish, o'quv rejalari amalga oshirish va talabalarni o'qitish, o'quv jarayonlarini kuzatib borish va baholash, ta'lim sifatini o'lchash va monitoring qilish uchun indikatorlarni belgilash alohida ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim tizimida sifat menejmenti deganda asosan ta'lim sifatini oshirish nazarda tutiladi. Bu esa ta'lim jarayonlarining yuqori sifatli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. O'qitish va o'quv dasturlarining sifatini oshiradi, talabalar bilim darajasini yaxshilaydi. Ishonchlilik va transparentlik jarayonida ta'lim muassasasining faoliyati ochiq va shaffof bo'lishini ta'minlaydi. Ota-onalar, talabalar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ta'lim sifatini aniq ko'rsatadi. Raqobatbardoshlik, ta'lim muassasalarining xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshiradi, talabalarni mehnat bozorida yuqori malakali mutaxassis sifatida tayyorlaydi. Ta'lim jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirib turish oliy ta'lim yaxshilash imkonini beradi.

Kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish orqali ta'lim sifati doimiy ravishda takomillashtiriladi. Muvofiqlik va sertifikatlash tizimi ta'lim dasturlarining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi. Sifat menejmenti tizimlari orqali muassasalar xalqaro akkreditatsiya va sertifikatlarga ega bo'lishlari mumkin.

Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish va nazorat qilishda manfaatdor tomonlarning ishtiroki alohida rol o'ynaydi. Talabalar, o'qituvchilar, ota-onalar va ish beruvchilar kabi manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari hisobga olinadi. Sifat menejmenti jarayonida barcha manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlanadi.

Ma'lumki ta'lim muassasalarida yuqori darajadagi ta'lim jarayonini tashkil etish uchun bir qator vazifalar amalga oshirilmoqda. Ana shunday vazifalarni to'g'ri va oqilova bajarilganligini nazorat qilish sifat menejmenti asosida baholash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ichki audit, talabalar va o'qituvchilarni baholash, tashqi baholash, ko'rsatkichlar va indikatorlarni aniqlash shular jumlasidandir. Oliy ta'lim muassasasining ichki audit tizimini joriy etish orqali ta'lim jarayonlarini muntazam ravishda ichki audit orqali baholanadi. Talabalar va o'qituvchilar tomonidan ta'lim jarayonlari va resurslarining baholanishi uchun esa so'rovnomalar, intervyular va tahlil natijalariga asoslangan baholash tizimi tashkil etiladi. Mustaqil baholash agentliklari tomonidan ta'lim muassasalarining faoliyatini baholanadi. Oliy ta'lim tizimi esa xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan baholash mezonlari asosida baholanadi. Ta'lim sifatini o'lchash uchun aniq ko'rsatkichlar va indikatorlar ishlab chiqilishi kerak. Buning uchun o'quv jarayonlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlanishi va boshqa muhim ko'rsatkichlar orqali baholanadi.



Sifat menejmenti oliy ta'lim tizimi boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun muhim vositadir. U ta'lim jarayonlarining yuqori sifatli va samarali bo'lishini ta'minlaydi, ta'lim muassasalarining xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshiradi va talabalarni mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo'lishiga tayyorlaydi. Sifat menejmenti tizimi orqali doimiy takomillashtirish jarayonlari amalga oshiriladi, bu esa ta'lim sifatini doimiy ravishda yaxshilash imkonini beradi.

Oliy ta'lim tizimi boshqaruvi samaradorligini baholashda sifat menejmenti va uning konseptual asoslari muhim rol o'ynaydi. Sifat menejmenti tizimi (SMT) ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida sifatni nazorat qilish va takomillashtirishni ta'minlaydi. Biz tadqiqot jarayonida sifat menejmenti va uning konseptual asoslarni batafsil ko'rib chiqdik.

- Sifat menejmenti konsepsiyasi.** Sifat menejmenti konsepsiyasi ta'lim jarayonlarini samarali va sifatli amalga oshirish uchun yaratilgan tizimli yondashuvdir. Bu konsepsiya sifatni rejalashtirish (Quality Planning), maqsadlar, strategiyalar, resurslar kabi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi. Bu komponentlar asosida oliy ta'lim muassasasining uzoq muddatli va qisqa muddatli maqsadlarini belgilash, sifatni oshirish bo'yicha strategik rejalar ishlab chiqish, ta'lim jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur resurslarni aniqlash va taqsimlash mumkin.
- Sifatni nazorat qilish (Quality Control).** Standartlar, indikatorlar, monitoring kabi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayonlari uchun xalqaro va milliy standartlarni belgilash va ularga rioya qilish, sifatni o'lchash uchun ko'rsatkichlar va indikatorlarni aniqlash, ta'lim jarayonlarini doimiy kuzatib borish va nazorat qilish mumkin.
- Sifatni ta'minlash (Quality Assurance)** uchun ta'lim jarayonlarini sifatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan protseduralar va jarayonlarni ishlab chiqish, mustaqil baholash agentliklari tomonidan ta'lim sifatini tekshirish va ta'lim dasturlarini akkreditatsiya qilish orqali sifatni tasdiqlash kerak bo'ladi. Sifatni Takomillashtirish (Quality Improvement) esa ta'lim jarayonlari va natijalarini tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va doimiy yaxshilash chora-tadbirlarini amalga oshirish, ta'lim jarayonlariga yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.
- Tizim yondashuvi.** Ta'lim jarayonlari va tashkilotning barcha komponentlarini yagona tizim sifatida ko'rish hamda barcha bo'limlar va xodimlar o'rtasida o'zaro hamkorlik va aloqalarni ta'minlashdan iborat. Ta'lim jarayonlarida talabalar manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish natijasida talabalar ehtiyojlari va kutilmalarini qondirishga intilish mumkin. Ta'lim jarayonlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali esa onlayn ta'lim platformalari va masofaviy ta'limni rivojlantirish lozim hisoblanadi. PDCA (Plan-Do-Check-Act) sikli orqali doimiy yaxshilash jarayonlarini amalga oshirish yordamida sifatni oshirish bo'yicha yangi g'oyalar va takliflarni qabul qilish va amalga oshirish kerak.
- Ma'lumotlarga asoslangan yondashuv.** Bu jarayonda qaror qabul qilish jarayonlarida aniq va to'liq ma'lumotlardan foydalanish, ma'lumotlar tahlili va statistik usullar orqali sifatni nazorat qilish orqali sifat menejmenti tizimini joriy etish muhim hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimi boshqaruvi samaradorligini baholashda sifat menejmenti muhim ahamiyatga ega. U ta'lim jarayonlarining yuqori sifatli va samarali bo'lishini ta'minlaydi, talabalarining bilim darajasini oshiradi va ta'lim muassasalarining xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshiradi. Sifat menejmenti tizimini joriy etish va rivojlantirish orqali oliy ta'lim tizimida sifatni doimiy ravishda yaxshilashga erishish mumkin.

Yuqoridagilardan foydalanib biz xususiy va davlat oliy ta'lim tizimida sifat menejmentidan foydalanishning 2024-yilgi holati uchun SWOT tahlilini o'tkazdik.

1-jadval: Davlat oliy ta'lim tizimida sifat menejmentidan foydalanishning 2024-yilgi holati uchun SWOT tahlili

Kuchli Tomonlar (Strengths):	Zaif Tomonlar (Weaknesses):	Imkoniyatlar (Opportunities):	Tahdidlar (Threats):
Barqaror Moliyalashtirish: Davlat tomonidan ta'minlanadigan barqaror moliyaviy resurslar. Oliy ta'lim muassasalarining davlat budjeti hisobidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi.	Byurokratiya: Haddan tashqari byurokratik jarayonlar va qattiq regulatsiyalar. Qaror qabul qilish jarayonlarida sustlik va kechikishlar.	Xalqaro Hamkorlik: Xalqaro hamkorlikni kengaytirish va ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish imkoniyati. Talabalar va o'qituvchilar almashinuvi orqali tajriba almashish.	Resurslarning cheklanganligi: davlat byudjetidagi cheklangan resurslar va ta'lim tizimiga yetarli e'tibor ajratilmasligi. Moliya ajratishdagi kechikishlar va byurokratik to'siqlar.



Keng Qamrov: Talabalarning keng qamrovini qamrab olish va ijtimoiy adolatni ta'minlash. Ta'lim tizimining barcha qavatlarida davlat nazorati.	Resurslarni Noqonuniy Ta'qib qilish: Moliyaviy va inson resurslarini samarali boshqarishdagi kamchiliklar. Texnologik yangilanishlar va innovatsiyalarni joriy etishda sustlik.	Texnologik Innovatsiyalar: Raqamli texnologiyalar va onlayn ta'lim platformalarini joriy etish. Zamonaviy o'quv texnologiyalari va usullarini qo'llash imkoniyati.	3.Raqobat: xususiy ta'lim muassasalarining raqobatiga dosh bera olmaslik. xalqaro ta'lim muassasalarining sifatli ta'lim dasturlari bilan raqobat qilish.
Sertifikatlash va Akkreditatsiya: Davlat tomonidan belgilangan stan-dartlarga muvofiq sertifikatlash va akkreditatsiya jarayonlari. Sifat menejmenti tizimlarining rasmiy ravishda tasdiqlanganligi.	Motivatsiyaning etish yetishmovchiligi: O'qituvchilar va xodimlarni motivatsiya qilishdagi kamchiliklar. Ishchilarni rag'batlantirish tizimining yetishmovchiligi.	Moliyaviy Qo'llab-quvvatlash: Davlat dasturlari orqali qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish. Ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun maxsus kvotalar va grantlar.	1.Siyosiy Barqarorlik: Siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi. Siyosiy qarorlar va regulyatsiyalar ta'lim tizimini noaniqliklar ichida qoldirishi.

2-jadval: Xususiy oliy ta'lim tizimida sifat menejmentidan foydalanishning 2024-yilgi holati uchun SWOT tahlili

Kuchli Tomonlar (Strengths):	Zaif Tomonlar (Weaknesses):	Imkoniyatlar (Opportunities):	Tahdidlar (Threats):
1. Moslashuvchanlik: Qaror qabul qilish jarayonlarining tezkorligi va moslashuvchanligi. Innovatsiyalarni tezda joriy etish va yangiliklarga moslashish.	1. Moliyaviy Barqarorlik: Moliyaviy resurslarning cheklanganligi va xususiy sarmoyalarning yetishmovchiligi. Ta'lim muassasasining moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi qiyinchiliklar.	1. Innovatsiyalar va Texnologiyalar: Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va innovatsion ta'lim usullarini qo'llash. Raqamli ta'lim platformalari va onlayn kurslarni kengaytirish.	1. Davlat Regulyatsiyalari Davlat tomonidan qo'yiladigan qat'iy regulyatsiyalar va nazorat. Sertifikatlash va akkreditatsiya jarayonlaridagi qiyinchiliklar.
2. Raqobatbardoshlik: Ta'lim sifatini oshirish orqali talabalarni jalb qilish. Talabalar va ish beruvchilar ehtiyojlariga moslashtirilgan dasturlar.	2. Akkreditatsiya va Sertifikatlash: Davlat tomonidan belgilangan sertifikatlash va akkreditatsiya jarayonlaridagi qiyinchiliklar. Sifat menejmenti tizimlarining davlat standartlariga mos kelishi zarurati.	2. Xalqaro Hamkorlik: Xalqaro hamkorlik va almashinuv dasturlarini rivojlantirish. Chet ellik professor-o'qituvchilarni jalb qilish va xalqaro akkreditatsiyalarni olish.	2. Raqobat: Davlat oliy ta'lim muassasalari va xalqaro universitetlar bilan raqobat qilish. Talabalar uchun jozibadorlikni yo'qotish xavfi.
3. Motivatsiya: Xodimlar va o'qituvchilarni yuqori darajada motivatsiya qilish. Rag'batlantirish tizimlari va maoshlarni oshirish imkoniyatlari.	3. Talabalar Kontingenti: Talabalar sonini oshirish va ularni jalb qilishdagi qiyinchiliklar. Talabalar to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirmasligi.	3. Xususiy Sarmoyalar: Xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarini yaratish. Grantlar, stipendiyalar va boshqa moliyaviy yordam imkoniyatlarini kengaytirish.	3. Moliyaviy Barqarorlik: Moliyaviy inqirozlar va iqtisodiy o'zgarishlar natijasida moliyaviy barqarorlikning yo'qolishi. Talabalar to'lovleri va sarmoyalarning yetishmovchiligi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oliy va xususiy ta'limda sifat menejmentini tashkil etish natijasida vujudga kelgan muammolarni hal etish uchun tadqiqotchi tomonidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish taklif etilmoqda:

- mavjud mablag'lardan oqilona va samarali foydalanish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyatini strategik rejalashtirish asosida muvofiqlashtirgan holda olib borishlari;
- hududlarning oliy ta'lim muassasalarini 100% moliyalashtirishdan voz kechishlari;
- hududlar muhtoj bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun maxsus fondlarni tashkil etishlari,



- bundan tashqari hudud hukumatlari o'z hududlarida zarur mutaxassislar soni kam bo'lgan tumanlarda ta'lim tadbirkorligi zonalarini tuzishlari;
- oliy ta'lim muassasalariga ajratilgan moliyaviy resurslarni ishlatish tartibini qayta ko'rib chiqish, audit natijalariga asoslanib moliyaviy resurslar ajratilishi lozim bo'lgan ustuvor yo'nalishlarni aniqlashlari;
- ayrim faoliyat yo'nalishlaridan voz kechish, pul mablag'larini ustuvor deb qabul qilingan yo'nalishlarga yo'naltirish va h.k.

Davlat va xususiy oliy ta'lim tizimlarida sifat menejmenti samaradorligini oshirish uchun har bir tizimning kuchli va zaif tomonlarini hisobga olib, imkoniyatlardan to'liq foydalanish va tahdidlarni bartaraf etish zarur. Bu jarayonda sifat menejmenti tizimlarining asosiy komponentlarini joriy etish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Kadrlarni davlat grantlari asosida maqsadli tayyorlash tartibi to'g'risida nizom" – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – 2005.–№32-33.
2. "Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom" – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.– 2006.– № 6-7.
3. "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi ta'limni olish tartibi to'g'risida nizom" – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.– 2008.– № 34.
4. "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash reyting tizimi to'g'risidagi nizom" – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – 2009. – № 28.
5. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida nizom" – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2009. – № 23.
6. "Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom" – O'z.R. Qonun hujjatlari to'plami.– 2010. – № 24-25.
7. "Oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom" – O'z.R. qonun hujjatlari to'plami. – 2010. –№ 24-25.
8. Gulchehra N. Prospects For Increasing The Competitiveness Of The National Economy Through The Development Of Innovative Activities //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
9. Igamova S. Ways To Organize Innovative Activity In Economic Sectors And Increase Its Effectiveness //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 24. – №. 24.
10. Gulchehra N. The Role Of Creative Marketing In Creating Modern Brands //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2023. – Т. 34. – №. 34.
11. Ashurova M. Conceptual Foundations Of Increasing The Effectiveness Of Advertising Activities In Tourist Companies //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 44. – №. 44.
12. Gulchehra N. Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness: Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
13. Gulchehra N. Trends And Prospective Directions Of Global Economic Development //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 44. – №. 44.
14. Narzullayeva G. S. et al. New Technologies and the Revolution in the Tourism Sector //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 97-101.
15. Boltayeva M. YANGI O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab quvvatlashning zamonaviy yo'nalishlari //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
16. Boltayeva M. Budget taqchiligini bartaraf etish yo'llari //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
17. Boltayeva M. Active Investment Policy In Our Country And Ways Of Their Intensive Development //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 37. – №. 37.
18. Sharipovna B. M., Sarvinov I. Active Investment Policy In Our Country And Ways Of Their Intensive Development // Pedagogical Sciences And Teaching Methods. – 2023. – Т. 2. – №. 20. – С. 112-116.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.